

TURKISTONDA ILM-FAN RIVOJI

Orifjonov Maxammadjon Shoodiljon o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolani o‘qish orqali biz Turkiston diyorida ilm-fan rivoji va sermahsul ijodkor Mahmudxo‘ja Behbudiy bobomizning bu jarayonga qo‘sghan ulkan hissasi borasida ma’lum tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: davlat, demokratiya, ilm-fan, millat, ilm-ma’rifat, jadid, darslik, o‘quv dastur, padarkush, janr, drama, nashriyot, adabiyot, jaholat.

Jadidchilik XIX asr oxiri XXasr boshlarida Turkiston, Kavakaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy - siyosiy, ma’rifiy harakat hisoblanadi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarda Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim tatarlar o‘rtasida vujudga kelgan. XIX asrning 90-yillardan O‘rta Osiyoda ham keng tarqala boshladi. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyarvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” deb tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) ning xizmati katta bo‘ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko‘tarildi. Behbudiy O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo‘lboshchisi edi. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan shaxs hisoblanadi.

Behbudiyning tashabbusi bilan o‘z otasi sharafiga “Behbudiya kutubxonasi” deb atalgan kutubxona tashkil qilingan. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903-yilda Samarqand atrofidagi Halvoysi (S. Siddiqiy), Rajabamin (A. Shakuriy) qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktab-lar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy” (1905), “Kitobat-ul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Mahmudxo‘ja 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudi bu qurultoyda Turkistonlilar guruhini boshqaradi va katta nutq so‘zlaydi.

1913-yildan Behbudi matbuot ishlari bilan shug‘ullanadi. Aprel oyidan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. O‘sha yilning 20 avgustidan u “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi. Bu suratlari haftalik jurnal asosan o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar ham berib borilardi. Behbudi shu yillari nashr ishlari bilan qizg‘in shug‘ullandi. “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o‘z xususiy

nashriyotini ochdi. Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asarini 1913-yilda ruschaga tarjima qildirib, nashr etdi. Turkiston xaritasini tuzib, bosmadan chiqardi. Kutubxonani yo‘lga qo‘ydi. O‘sha davr vaqtli matbuotida “Behbudiy kutubxonasi” haqidagi xabarlar chiga boshlangan edi. Behbudiy milliy til masalasiga katta e’tibor qaratdi. Birgina uning “Oyna” jurnalni ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo‘lgan.

Behbudiy millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi – nishona maqola bilan chiqqan edi. Behbudiy yoshlarni nafaqat o‘za ona tilini mukammal darajada bilishni targ‘ib qilgan, balki, yoshlarni boshqa chet tillarini ham o‘rganishga, faqatgina bitta ona tili bilan cheklanib qolmaslikka da’vat qilgan. Tillarni o‘rganishda yoshlarga go‘zal o‘rnak bo‘lganligini xitoy, fors va boshqa bir necha tillardan asrlar tarjima qilib ommaga keng miqyosda targ‘ib qilganligida, turkiy, forsiy va shu kabi bir necha tillarda maqolalar yozib ularni har haftada bir necha marotaba nashriyot-gazetalarda chop etganligidan bilishimiz mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, Behbudiy xalqni ma’naviyatli va ilm-marifatli bo‘lishga chorlagan. Unga ko‘rsatilgan qarshiliklar bo‘lishiga qaramasdan, moddiy qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramay o‘z maqsadi yo‘lida qat’iy harakat olib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar.-T.:”Ma’naviyat”. 1997.
2. Qosimov B. Karvonboshi.// Behbudiy M. Tanlangan asarlar.-T.:”Ma’naviyat”. 1997.
3. Ahrarov Z. Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifiy-pedagogik qarashlari. NDA. - T.: 1997.
4. Hoji Muin. Behbudiy muxlislariga ochiq xat // Turkiston. 1922. 21-dekabr.
5. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. - Toshkent: Akademiya, 1999.
6. Baldauf, Ingeborg. XX asr o‘zbek adabiyotiga chizgilar. - Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
7. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri. - Toshkent: Universitet, 1999.
8. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. - Toshkent: Sharq, 2005.
9. Karimov N. Mahmudxo‘ja Behbudiy. - Toshkent, 2010.
10. Qosimov B. Maslakdoshlar. - Toshkent: Sharq, 1994.
11. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. - Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
12. Qosimov B., Dolimov U. Ma’rifat darg‘alari. - Toshkent: O‘qituvchi, 1990.